

BUGUN - XOTIRA VA QADRLASH KUNI



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Motamsaro ona poyida,
Sezdik yurak armonlarini.
Unutmaydi Vatan hech qachon,
Mard va jasur o'g'lonlarini.*



BU MUQADDAS VATANDA AZIZDIR INSON

Xotira – o'tmishni kelajak bilan bog'lovchi ko'priq. U insonning pok qalbidagi buyuk hislardan biridir. Ota-bobolarimiz xotirasi, ayniqsa, Vatan tinchligi, osoyishtaligi yo'lida jonidan kechgan insonlar yodi ulug' va muqaddasdir.

Muhtaram Prezidentimizning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi Farmoni urush faxriylari bilan bir qatorda barcha yurtdoshlarimizni to'lqinlantirib yubordi.

Shukurki, bugun tinchlikdan yosh-u keksa birdek baxtiyor. Chunki osoyishtalik qalbga o'ram, dilga nur bag'ishlaydi. Tinchlik kelajakning obodligi, farovonligi demakdir. Shunday ekan, azizlar, bugungi farahbaxsh kunlarga shukrona keltiraylik, qadriga yetaylik, shu go'zal yurt, shu zamin meniki, deya bor kuch-g'ayratimizni bilim olishga, Vatan ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishga sarf etaylik.

Gazetamizning bayram sonini sahifalash arafasida faol muxlisimiz Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi Muzaffar Begmatovdan maktub oldik.

(Davomi 2-betda)



Qodir bobo

90 yoshdan oshdi. Nabirasi Muhammadjon ko'pincha so'raydi: «O'tgan asrdagi Ikkinchi jahon urushida fashistlar bilan jang qilgansiz. Qayerlarda, qanday jasoratlar ko'rsatgansiz?..»

Bobo bugungi dorilamon kunlarda urushni sira eslagisi yo'q. Lekin tarixda o'chmas voqea bo'lib qolgan o'sha dahshatli xotiralarni eslamasa ham bo'lmaydi.

U qo'liga qurol olib, dushmanlarga qarshi jangga kirganida yoshgina yigit edi. Ikki marta yaralandi, lekin aslo chekinmadi.

Urushdan keyin Qodir bobo 50 yildan ortiq vaqt oliygohlarda talabalarga tarix fanidan saboq berdi. Hozirgi kunda huquq-tartibot organlarining minglab xodimlari, faxriylari uni sevimli ustoz sifatida e'zozlab, faxr bilan tilga olishadi.

– Eng ezgu tilagim, dunyoda hech qachon urush bo'lmasin, – deydi mehnat va urush faxriysi Qodir bobo Ernazarov. – Yaratganga shukur, yurtimiz tinch, xalqimiz farovonlikda yashamoqda. Farzandlarimiz maktablarda, oliy o'quv yurtlarida o'qimoqdalar. Bu kunlarning qadriga yetish kerak. O'zbekistonimizga ko'z tegmasin, bunyodkorlik ishlari avjida. Poytaxtdagi bir-biridan chiroyli binolar, ko'priklar, qishloqlardagi zamonaviy uy-joylarni aytmaydizmi! Ayniqsa, Toshkentni Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi yangi temiryo'li qurilishi mamlakatimizning buyuk kelajagidan nishona. Eng muhimi, yurtimizda insonlarning qadr-qimmatini ulug'lanmoqda, ajdodlarimiz xotirasiga cheksiz ehtirom ko'rsatilmoqda.

Urush ko'rgan boboning so'zlarini tinglar ekanmiz, mehr to'la ko'zlaridan bu dorilamon kunlarning qadriga yetishimiz kerakligini uqib olamiz. Nevaralari boboning ko'ksini bezab turgan mustaqil O'zbekistonimizning yuksak mukofotlari – «Jasorat» medali hamda «Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 70 yilligi» esdalik medaliga havas bilan qarashadi. Bobo hayoti ularda shu ona Vatan va uning kelajagi uchun qayg'urish, fidoyi bo'lish, kerak bo'lsa, jasorat



QODIR BOBONING TILAGI
Dunyoda hech qachon urush bo'lmasin

ko'rsatish tuyg'usini shakllantirsa, ajabmas.

Jabbor RAZZOQOV



Xotira va qadrlash kuni arafasida Toshkent pedagogika kollejining 2-bosqich 9-guruh o'quvchilari ustozlari Gulnora Rasulova hamda Muqaddas G'aniyeva hamrohligida 40 yil ushbu dargahda yosh avlodga saboq bergan Nasiba opa G'oziyeva xonadoniga tashrif buyurishdi. Faxriy ustoz mustaqillik bergan keng imkoniyatlar haqida so'zlab, o'quvchilarni bugungi osuda kunlarning qadriga yetib yashashga da'vat etdi.

Xotira – ulug', qadr – muqaddas

(Davomi. Boshi 1-betda)

Bu diynomada bitilgan so'zlar barchamizning qalbimizni larzaga soldi. Gazetxon o'quvchilarning yaxshi bilishadi. Qo'shrabotdagi 68-umumta'lim maktabi qoshida tashkil etilgan «Nafis san'at» to'garagi a'zolari bir necha yillardan buyon biz bilan ijodiy hamkorlik qiladi. To'garak o'quvchilarining barchasi iqtidorli. Ularning ijodiy ishlari respublika va xalqaro tanlovlarda faxrli o'rnlarga munosib ko'rilgan.

BU MUQADDAS VATANDA AZIZDIR INSON

«Taqdirdan qochib bo'lmas ekan», deb boshlabdi «Nafis san'at» to'garagi rahbari o'z maktubini. «Yaqinda to'garagimizning faol a'zosi, iqtidorli o'quvchim Muslima Nurmatova betobligi sababli bu dunyoni tark etdi. Uning qanchadan qancha orzu-umidlari bor edi.

Kuni kecha Muslimaning vafotidan keyin Rossiyaning «Kinematografiya – bolalar rasmlarida» xalqaro tanlovda uning ishlari yuqori baholanib, g'oliblik diplomi pochta orqali keldi».

Muslima 2003-yilda Qo'shrabot tumanidagi Mayintepa qishlog'ida tug'ilgan. 2013-yilda «Yagona oilamiz», «Bozorda» kabi mavzulardagi rasmlari bilan xalqaro tanlovda qatnashib, g'olib bo'lgan. 2014-yilda Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro tanlovda ekologik mavzudagi ijodiy ishlari uchun sertifikat, 2015-yilda esa «Kinematografilar sahrada» rasmi uchun g'oliblik diplomi bilan taqdirlangan.

Ustoz o'z maktubida bu gaplarni yozish, aytish naqadar og'ir ekanligini, ammo Muslimaning shu qisqagina hayotida erishgan yutuqlari guldek yoshligini behudaga o'tkazayotgan ayrim o'quvchilarga ibrat bo'ladi, degan niyatda qo'lga qalam olganlarini eslatib o'tibdi. Shu bilan birga, yurtimizda halol mehnat qilgan har bir inson e'tibordan chetda qolmasligini, albatta, qadrlanishi, e'zozlanishini ta'kidlaydilar.

«O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi Muzaffar Begmatovning ushbu fikrlariga qo'shilgan holda, bizning diyorimizda inson qadri tog'lardan-da baland, xotira – ulug', qadr – muqaddas, deymiz.

Feruza SOYIBJON qizi

Mustaqilligimizning 25 yilligi oldidan

ONAMDEK BOSHIMNI SILAYDI... SILAYDI...

Yurtimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostidagi yoshlar festivali Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlarida ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan qator davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida o'tkazilayotgan yoshlar festivali viloyat o'g'il-qizlari qalbidagi yorqin taassurot uyg'otdi.

Xayrinsaning hayajonini festivalning har bir ishtirokchisida kuzatish mumkin.

Shirin shahridagi 3-bolalar musiqa va san'at maktabida «Zamonamiz qahramonlari» loyihasi, Xovos tumanidagi 14-bolalar musiqa va san'at maktabida «Siz sevgan qahramonlar» mavzusidagi tadbir, Yangiyer shahridagi 3-akademik litseyda «Vatanim



– Onamdek boshimni silaydi Vatan, har tong iqbolimni tilaydi Vatan. Shunday ekan, nima uchun biz yoshlar o'qib-o'rganmasligimiz, yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanmasligimiz, izlanmasligimiz kerak. Men «Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlisiman. Maktabda o'qib yurgan damlarimda maqolalarim ham chop etilgan, – deydi Guliston tibbiyot kollejining 1-bosqich o'quvchisi Xayrinisa Abdullajonova. – Ushbu festival doirasidagi loyihalar biz yoshlarga olam-olam quvonch baxsh etdi. Yuraklarda Vatan mehri yanada jo'sh urmoqda. Biz shu aziz yurtimizga munosib farzand bo'lishga so'z beramiz.



Istiqlol tufayli xotira va qadrlash degan oliyanob tushuncha asl ma'no va mohiyati bilan hayotimizga kirib keldi. Mana bir necha yildirki, 9-may – Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi.

Shukronalik hissi

– Yaratganga shukurki, shunday dorilamon kunlarga yetishdik, – deydi Marg'ilon shahridagi «Sholdirma» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Foziljon ota Muhsinov. – Yurtimiz tinch, dasturxonimiz to'kin, biz faxriylar e'zoz va e'tibordamiz. Qayerga bormaylik, barcha izzat-ikrom ko'rsatishadi. Mahalla faollari, jamoat tashkilotlari vakillari ham tez-tez holimizdan xabar olishadi.

Hayotda ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirganimiz uchun yoshlarga, farzandlarga nasihat qilganda, «Bugungi osuda kunlarning qadriga yetinglar, elga munosib farzand bo'linglar», deymiz. Chunki hech bir zamonda odamlar hozirgidek qadrlanmagan, ularga bunday e'tibor ko'rsatilmagan.

Bu yil 90 bahorni qarshi oldim. Umrimning 25 yilini Mustaqillik davrida yashayotganimdan ming bor roziman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

«Sog'lom bola – boy bola» tanloviga

SOG'LOM FARZAND – YURT TAYANCHI

Har bir ona o'z jigarbandining sog'lom dunyoga kelishini va sog'lom muhitda tarbiyalanishini istaydi.

Bizning yurtimizda yoshlarning chuqur bilim egallashi, yuksak cho'qqilarni zabt etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Zero, O'zbekistonning ertangi kuni sog'lom va barkamol yoshlar qo'lidadir. Dunyodagi eng katta boylik bu sog'likdir. Biz ham bunga javoban Vatanimizni yanada gullab-yashnashi uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishga tayyormiz.

Parvina USMONOVA,
Buxoro shahridagi 26-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi

MA'RIFATLI YOSHLAR BELLASHUVI



Poytaxtimizdagi 272-umumta'lim maktabida «Jaholatga qarshi ma'rifat» ko'rik-tanlovining shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 29 nafar o'quvchi insho, she'r va tasviriy san'at yo'nalishlarida o'zaro bellashdi.

155-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfidan Komila Latipova 2-, Sergeli tumani 6-IDUMning 9-sinf o'quvchisi Maftuna Halimova, Yunusobod tumanidagi 51-IDUMning 8-sinfidan Fazilat Qurbonova va Chilonzor tumanidagi 200-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nilufar To'xtamurodovalar 73 ball bilan 3-o'ringa loyiq topildi.

She'r yo'nalishida Mirobod tumanidagi 328-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi Mahbuba Abdulazizova 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Chilonzorlik Husnora Jalashova 2-, Uchtepa, Yunusobod, Sergeli tumani vakillari 3-o'rinni egallashdi.

Chilonzor tumanidagi 164-umumta'lim maktabi o'quvchisi Jamshid Muhammedov tasviriy san'at yo'nalishida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblar tanlovning respublika bosqichida bellashadi.

Nozima JAVHAROVA

9-may 2016

Kuni kecha Namangan viloyatida bo'lib o'tgan Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlangan

«KIM EDIG-U KIM BO'LDIK

ertaga qanday yuksak marralarni egallashimiz kerak?!»

mavzusidagi tadbirdan katta taassurotlar olib qaytdik.

Ayniqsa, joylarda farzandlarimizning bilim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, quvondik. Bizni zavq-u shavq bilan kutib olgan o'quvchilarimizning ko'ngil olamini sayr etdik. O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib turgan sakkiz yoshli Bahodirjondan so'raymiz:

– Qo'lingizdagi bayroq kimniki?!

U hech ikkilanmay:

– Bu mening bayrog'im! – deya javob qaytardi. Ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimizning yorug' yo'li, o'ktam ovozi, sehrli nigohidan yurtga bo'lgan tengsiz muhabbat hissi barq urib turardi...

Xayol bizni bolalikning tengsiz xiyobonlari sari undaydi. Pastak tomlar,

qop-qora partalar, yu-pu-n


kiyimda sovuqdan dildirab o'tirgan o'quvchilar. Erta bahordan kech kuzgacha bizdan ayro tushmagan dala. Darslari chala qolib ketgan ustozlarning g'amgin nigohi. Har qadamda: «To'xta, sen bugun necha kilogramm paxta terding?!» degan shiorlar. Boshimizdan tinimsiz g'izillab, biz bilan paxtani qo'shib zaharlayotgan samolyotlar jonlana boshladi. U paytdagi o'quvchilar tinimsiz nihollarga egilib yurish bilan band bo'lishardi.

Eh, qo'ying, u kunlarni eslasam, badanim jimirlaydi... Bugun boshimizda Istiqlol quyoshi charaqlab turibdi. Yurtboshimizning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart», degan so'zlarida farzandlarimizning bilim olishi uchun yaratilgan hisobsiz imkoniyatlarga guvohmiz. Shunday ekan, yoshlarimiz o'zlarini ulug' ajdodlar vorisi ekanligini unutmasdan tinimsiz, puxta bilim egallash yo'lida intilib yashashlari kerak.

AXTAMQULI



Chortoq tumanidagi 22-umumta'lim maktabida o'tkazilgan uchrashuv.



BUVIJONIM O'GITI

Buvijonim

oilamizdagi eng yaqin maslahatchimiz. Ular: «Qiz bola hamisha odobli, aqlli, ziyarak, orasta bo'lishi lozim», deyдилar.

Shu bois, har kuni maktabga ketayotganimda kiyimlarimning ozoda ekanligini, oyoq kiyimim tozaligini, sochlarim chiroyli o'rilganini ko'zdan kechiradilar. Dugonalarim bilan inoq bo'lishimni, a'lo baholarga o'qishimni qayta-qayta ta'kidlaydilar. Biror ishni ko'ngildagidek bajarmasak, muloyimlik bilan to'g'ri yo'l ko'rsatadilar, tushuntiradilar. Erta tursangiz, ishingiz unumli bo'ladi, deyдилar. Shu bois, azonda hovlini supuraman, choy tayyorlashga onamga ko'maklashaman. Kattalarga salom berib, joy berish kerakligini uqtiradilar. Keling, aziz tengdoshlarim, keksalarimizni doimo ardoqlaylik, ularga hurmat-ehtirom ko'rsataylik.

Shahlo NORMURODOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 81-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

Yakkasaroy tumanidagi 91-umumta'lim maktabi o'quvchisi Farrux Izzatullayev she'riyat yo'nalishida 2-darajali diplom bilan taqdirlandi.



Tengdoshingiz Iroda Husanova 5-sinf o'quvchisi. U Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 110-umumta'lim maktabida ta'lim oladi. Darslari tugagach, raqs va badiiy gimnastika to'garagiga boradi.

XOHISH BO'LSA, BAS



Uy vazifalarini ham bekam-u ko'st bajaradi. O'h-o', qanday ulguradi, deyapsizmi? Ha, ha, ishonavering, xohish bo'lsa, bas.

U 2014-yil «Kamalak» yulduzlari bolalar ijodiyoti festivalida qatnashib, sertifikatni qo'lga kiritdi. Ustozlari Noila Ortiqova, Mohinur Jo'rayeva, Sabina Ma'rupovalar ham raqs bo'yicha bilimlarini shogirdidan ayamaydi. Hozirda bu qizaloq ustozlaridan hind raqslarini puxta o'rganmoqda.

Tilagimiz – bunday iqtidorli bolalar res-publikamiz bo'ylab ko'payaversin.

Sh. KARIMOVA

SHIJOATLI YETAKCHI

Odatda o'z kasbiga astoydil mehr qo'ygan insonlarni ko'rganimizda, aynan shu kasb uchun yaralgan ekan-da, deb qo'yamiz, beixtiyor.



Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro tumanidagi 53-umumta'lim maktabi «Kamolot» yetakchisi Mavluda Yembergenovaga uni tanigan-bilganlar aynan shunday nisbat berishadi. Bu bejiz emas, albatta. G'ayrat-shijoati ichiga sig'maydigan yetakchi opangiz zimmasidagi talaygina vazifalarni a'lo darajada uddalabgina qolmay, maktab qoshida havaskor qo'g'irchoq teatrlari tashkil etdi. 2012-yilda ilk tomoshalarini boshlagan teatrlarning ishtirokchilari ham, tomoshabinlari ham aynan

shu bilim maskani o'quvchilari edi. Qisqa muddatda qiziqarli spektakllari bilan tomoshabinlar mehrini qozondi, turli tanlovlar o'z iqtidorlarini to'la namoyon etishlariga imkon yaratdi. 2013-yilda «Badiiy nafasat» ko'rik-tanlovining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida qo'g'irchoq teatri yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa munosib ko'rilgani teatr jamoasini yanada ruhlantirib yubordi. Tanlovning Samarqand shahrida o'tkazilgan respublika bosqichida 3-o'ringa sazovor bo'lishgani esa ularni yanada ko'proq mehnat qilishga, izlanishga undadi.

Teatrga Zoya Mitina, Shohsanam Xojabayeva, Shahnoza Matnazarova singari kollejini tamomlagan iqtidorli qizlar jalb qilindi. «Bo'g'irsoq», «Oltin baliqcha», «Qo'g'irchoqlar sahnada», «Yalmog'iz keldi», «Solakboyniing mulki» nomli ertaklar asosida milliylik va zamonaviylik uyg'unligida sahnalashtirilgan spektakllarning o'zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi talqini bolajonlarga olam-olam quvonch bag'ishlayapti. Quvonarlisi, bu spektakllar ssenariysini Mavludaxonning o'zi yozib, o'zi sahnalashtiradi. Ular tayyorlagan «Biz baxtli bolalarmiz» nomli tomosha Qoraqalpoq televideniyesi orqali namoyish etilganida, havaskor aktyorlarning quvonchi ichiga sig'may ketdi.

Ayni kunlarda teatr jamoasi Xo'jayli tumanidagi Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari qalbiga yangi-yangi tomoshalar, sovg'a-salomlari bilan quvonch ulashish niyatidalar.

Ertaklar orqali bolajonlar qalbiga halollik, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik kabi chin insoniy fazilatlarini singdirishni niyat qilgan Mavludaxon Yembergenova singari g'ayratli, shijoatli yetakchilarimiz safi kengayaversin.

F. JALILOVA

Yaqinda Respublika bolalar kutubxonasida «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan

«KEKSALAR HAYOT YO'LI — YOSHLARGA IBRAT»

nomli ochiq dars bo'lib o'tdi

Ushbu darsni poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining oliy toifali o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Muxtasar Umarova 6-«B» sinf o'quvchilari bilan birgalikda tayyorladi. Bolajonlar xotira, qadr, mehr-oqibatga bag'ishlangan she'r, hikmatli iboralar yodlash bilan birga, O'zbekiston Yozuvchilar va jurnalistlari ijodiy uyushmalari a'zosi, Qurolli Kuchlar faxriysi, shoir Iskandar Rahmonning «Tandirvoy – olovli yillar bolasi» kitobidan ayrim sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi. Shuningdek, «Yangi asr avlodi» nashriyatida chop etilgan ushbu nomdagi yangi kitob yuzasidan bahs-munozara o'tkazildi.

O'quvchilardan Ro'za Sansarova, A'zamjon Sobirov, Behzod Ziyovuddinov, Saidakbar Ro'zmatov, Xadicha Rixsiboyeva, Farrux Isoqov hayotiy voqealarga asoslangan qissadagi bosh qahramon – Orifjonning og'ir urush



yllaridagi boshidan kechirgan qiyinchiliklari, vatandoshlarimizning fidoyiligi sabab hozirgi tinch-osoyishta hayotni qo'lga kiritilgani, bu kunlarning qadriga yetish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Asar muallifi o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytardi.

Gulchehra KARIMOVA

USTOZ QUVONCHI

Maktabimizda 21 yildan buyon ona tili va adabiyot fanlaridan dars beradigan Shoira opa Jumshayeva barchamiz birdek hurmat qilamiz.

Ayniqsa, fan oyliklarida ular uyushtiradigan tadbirlar juda qiziqarli o'tadi. Bunga javoban yil davomida tumanda o'tkaziladigan «Insholar» tanlovi, «Bilimlar bellashuvi»da yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdamiz. Jumladan, 8-«B» sinfning faol o'quvchilari Nigina Rustamova, Charos Qosimova, Ra'no Tolipova va 8-«A» sinf o'quvchilari – Shahzoda Ismatullayeva, Aziza Usmonovalarni ustozimiz bizga o'mak qilib ko'rsatadilar. Yutuqlarimizdan ayniqsa, maktabimiz rahbari Gulnora opa Xoliqova juda xursand bo'ladi. Ha, barchamiz o'ynab-kulib ta'lim olayotgan maskanimiz ikkinchi uyimizga, mehribon ustozlarimiz esa onajonlarimizga o'xshashadi. Aziz tengdoshlar, keling, imkoniyatlardan unumli foydalanib, ustozlarimizni qadrlaylik!



Aziza TOSHTEMIROVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

YASHIL CHIROQ

Jizzax shahridagi 19-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Karima Siddiqovaning 2-«A» sinf o'quvchilari bilan o'tkazgan «Yo'lingiz bexatar bo'lsin!» mavzusidagi mashg'uloti qiziqarli va ta'sirchanligi bilan ko'pchilik e'tiborini o'ziga tortdi. Maydonchadagi piyodalar o'tish chizig'ida «chorraha», «ko'cha», «svetofor» kabi yo'l belgilari qo'yilgan bo'lib, ustoz mashg'ulotni no'an'anaviy tarzda olib borishga harakat qildi. Karima opa o'z ishiga ijodiy yondashganligi bois, o'quvchilar yo'l harakati qoidalarini puxta o'zlashtirishga erishdi.

Shuningdek, Tamara O'tamurodova, Iroda Uzoqova, Venera Boybekova rahbarligidagi 1-«A», 6-«G» hamda 6-«D» sinf o'quvchilari ham belgilangan mavzularni qiziqarli mashg'ulotlar orqali o'zlashtirmoqda.

O'quv dargohi yonida transport qatnovi va avtobus bekati mavjudligi bois, shahar avtoinspektor xodimlari hamda «Zilo» mahallasi uchastka noziri rahbarligida yuqori sinf o'quvchilaridan postlar tashkil etilgan. Bunday tadbirlarda Oybek Mahmudov, Aziz Xalilov, Muhammad Abrorov kabi iqtidorli o'quvchilar faol ishtirok etmoqda.

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati

BIR BURDA NON QADRI...

Bir kuni buvimnikiga mehmonga borganimizda, yeyayotgan nonimdan mayda tosh chiqdi. Men uni asta chetga surib qo'ydim. Shunda bobojonim non bo'lagini olib, o'zlari yedilar.

Bu holdan hayron bo'lganimni ko'rib, yoshlik davridan boshidan o'tgan voqeani so'zlab berdilar.

– O'shanda 6–7 yoshli bola edim, – deya gap boshladilar bobom. – Oilada to'rt farzand edik. Otam urushga ketgan, onam rahmatlik qornimizni to'ydirish uchun yelib-yugurar, bir burda non yegan kunimiz uyimizda bayram bo'lardi. Ko'pchilik bolalarning ochlikdan sillasi qurib, nimjon va kasalmand bo'lib tushgandi. Bosh farzand bo'lganim uchun onamga yaqin yordamchi edim. Shunday kunlarning birida ular bilan bug'doydan bo'shagan dalaga chiqdik. Tongdan qorong'u tushgunga qadar to'kilgan boshloqlarni terdik. O'sha kuni kechasi bilan boshloqni tozalab, ertasi kuni tegirmonga olib bordik. Yo'lda kelayotganimizda, un solingan xaltaga barzangidek bir kishi yopishdi. U onamning qo'llaridan unni tortib olmoqchi bo'lib, rosa harakat qildi. Shu payt xalta yorilib,



ichidagi un tuproqqa sochildi. Atrofdagilar yordamga kelib, barzangini quvishdi. Onam yig'lay-yig'lay tuproqqa qorishgan unni yerdan qo'llari bilan supurib oldi. Shu kuni tuproq aralashgan non yeganimizda ham o'zimizni baxtli sezganmiz.

Urush yillarida ochlikdan avval singlim, keyin ukamdan ayrildik. O'shanda yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashadik. Mana, bolam, dorilamon kunlar kelib, qorning to'q, usting butun, biz orzu qilgan sharoitlarda yashayapsizlar. Bu kunlarga faqat shukrona aytib, kelgusida yurtga munosib avlod bo'lib yetishishingiz lozim.

Buvamning bu gaplaridan keyin hech bir narsani isrof qilmaslik lozimligini anglab yetdim.



Odina SAHOBIDDIN qizi, Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

10-may – atoqli shoirimiz G'afur G'ulom tug'ilgan kun

FAYZLI XONADON

Yaqinda ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Mohina opa Omarova bizni shoirim uy-muzeyiga olib bordi. U yerda ijodkor bobomizning hayoti va ijodiga oid qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ayniqsa, darslikda o'rganayotgan «Shum bola» qissasining asl nusxasi bilan tanishish juda maroqli kechdi. Shuningdek, u yerda G'afur G'ulom shajarasi haqidagi

ma'lumotlarni o'qib, uy-muzey rahbari shoirim qizi Olmos opa G'ulomova ekanini ham bilib oldik. Muzei hovlisidagi shoir haykali o'zining o'ychan nigohlari bilan bizga, go'yo: «O'qinglar, bilim olinglar, kelajak sizlarniki», deyatoytandek tuyuldi. Ustozimiz bugungi sayohatimiz asosida insho yozishni uy vazifasi qilib topshirdi. Menimcha, barcha sinfdoshlarim ajoyib insho yozishlari, shubhasiz. Negaki, biz uy-muzeydan olam-olam taassurotlar bilan qaytdik.

Farangiz QORAQULOVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

LESSON 86

THE SQUARE OF MEMORY

(Xotira maydoni)



N. SULTONOV olgan suratlar

The square of memory and honor is a monument which established in 1999, located at the Independence Square in front of the Eternal Flame. The monument of mourning mother is an amulet as well as it warns us about the past.

Length of the square is 60 metre. There

were built very beautiful engraver yards in northern and southern sides. In the shelves you can see the metal boards with the names and surnames of Uzbek people who died in the World War II.

There are great share of plasterer masters from Kokand, Kharezm, Tashkent, Samarkand and Andijan.

LOLA'S USUAL DAY

(Lolaning bir kuni)

Read what Lola says about a typical working day:

I usually get up at 7 o'clock and have a big breakfast. I walk to work, which takes me about half an hour. I start work at 8.45. I never have lunch. I finish work at 5 o'clock. I'm always tired when I get home. I usually cook a meal in the evening. I don't usually go out. I go to bed at about 11 and I always sleep well.

Yesterday was a typical working day for Lola. Write what she did or didn't do yesterday.

- | | |
|------------------------------|-----------------------------------|
| 1. She got up at 7 o'clock. | 7.at 5 o'clock. |
| 2. Shea big breakfast. | 8.tired whenhome. |
| 3. She | 9. a meal yesterday evening. |
| 4. It to get to work. | 10. out yesterday evening. |
| 5.at 8.45. | 11.at 11 o'clock. |
| 6.lunch. | 12. well last night. |

Prepared by Dinora SHAKIROVA

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

WISE ADVICE

– Most of your advice you say for young people but less of them for old people, what is the reason? – Luqmoni hakim was asked.

And Luqmoni hakim answered:

– If gardener softens the ground, transfers a graft, cleans around it from hay and wild grasses, when it needs, gives water, in general, if he pays more attention to tree, it will grow quickly and it gives fertile harvest.

If a child is brought up well from early youth, if he grows up with beautiful, tactful morals, he will bring happiness to himself and parents, and he becomes to a useful member of public. That's why much piece of my advice is about young people.

New words:

To transfer graft – ko'chat o'tkazmoq

To grow up – o'smoq

Fertile – serhosil, unumdor




Sarvinoz NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

RIDDLES (Topishmoqlar)

The more you walk, the more you leave behind. What are they?



What is round as a dishpan and no matter the form, all the water in the ocean can't fill it up?



Miyassar AZATBAYEVA, the pupil of Nukus pedagogical college

Ne'mat DUSHAYEV

BAHOR KUYCHISI

Shoira ZULFIYA ISROILOVANI
xotirlab



Siz-ku yiroqdasiz nomingiz dilda,
Tillarda yangraydi sehri navo.
Sizni ardoqlaymiz orzu-tilakda,
Nomingiz qabllarda erur jo-bajo.

Har lahza bahorni kuylaysiz jo'shib,
Qalbingiz iforin sochgansiz she'rga.
Quvonch ila baxtni mehrga qo'shib,
Jo'r etib ketdingiz mungli sehrga.

Qalam va qog'ozni tushirmay qo'ldan,
Tinmay tebratdingiz kuch, sabr bilan.
Ayriliq azobi o'chmagay dildan,
Nomingiz yashaydi doim biz bilan.

Durdona BAHROMOVA,
Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 223-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi



MAYSAGON

Cho'lda o'sgan bir maysaga,
Rahmim kelib, to'xtadim.
Qovjiragan u maysaning,
Borib holin so'radim.

«Olib ketay seni boqqa,
Sharqiragan suvli toqqa.
To'yib-to'yib suv ichasan,
O'ynab-kulib suv kechasan».

«Yo'q-yo'q», dedi maysa menga,
«Ketolmayman, rahmat senga.
Bu qumliklar menga Vatan,
Qumlik bilan jonim bir tan».

Sh. MAMA-JONOVA chizgan rasmlar

BUVIJONIM

Siz kelsangiz uyimizga,
Bayram bo'lib ketadi.
Mehringizni qaynoq tafti,
Ko'nglimiz ilitadi.

Tong saharda turganda,
Sog'ligingiz so'raymiz.
Sizga shunday yoshlarni,
O'ntasini tilaymiz.

Birimiz deysiz asal,
Birimiz deysiz shakar.
Sog'inib she'rilar yozdi,
Nabirangiz Gulasal.

Gulasal

TOSHPO'LATOVA,
Navoiy viloyati, Navbahor
tumanidagi 16-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi

YOMG'IR



Ko'k ko'rpasin tortdi-ku,
Zambaragin otdi-ku.
Chaqmoq chaqib birma-bir,
Yomg'irjon yog'di shir-shir.

Ko'ylakchan edi Charos,
Quyib berdi-ku sharros.
Chang-g'uborni bosdi nam,
Qochdi kuchukchalar ham.

Yomg'ir, yomg'ir, yomg'irjon,
O't-u o'langa darmon.
Rosa ezib yog'di u,
Kimdan bezib yog'di u?!

Ariqlarni toshirdi,
Hamamizni shoshirdi.
Qo'shiq boshlab tarnovlar,
Jilg'alarni so'rovlar.

Shaffof-shaffof tomchilar,
Zamin uzra tomchilar.
Yashnab ketdi dala-qir,
Yog'aver, iliq yomg'ir.

Bog'da gullar, maysalar,
Sozdin yuzin chaysalar.
Bobom der: – Yomg'ir bu rizq,
Yog'ib turgani tuzuk.

Yog'sa hamma bekinar,
Lekin yashnar ekinlar.
Yomg'ir. Hamma shod bo'ldi,
Tog'am gapi yod bo'ldi.

Deydi: – Toqqa boringlar,
Chiqdi qo'ziqorinlar.

NURGA TO'LSIN BU OLAM



Men, opam, ukam, singlim,
Oyim, dadam erkasi.
Ular quyosh, oy bo'lsa,
Biz ular yulduzchasi.

Jilmayib deydi oyim:
«Vatanni sev har doim».
Atrofigga sol nigoh,
Vatandir ulug' dargoh.

Biroz surib men xayol,
Berdim unga bir savol.
«Nega quyosh charog'on?
Nega yurtim farovon?»

Oyim o'yga tolib jim,
Dedi: – Tinchlik bor, qizim.
Dedim: – Yurtim tinch bo'lsin,
Bu olam nurga to'lsin.

Marg'uba MUHAMMADJONOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota
tumanidagi 5-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi

Vataniga sadoqatli,
Maysaga men hayron qoldim.
O'z tuprog'in sotmaslikni,
Maysalardan bilib oldim.

Laylo SATTOROVA,
Samarqand shahridagi 42-umumta'lim maktabining
3-«A» sinf o'quvchisi

GULNOZA-YU DILNOZA



Mening ismim Dilnoza,
Dugonam ham ko'p rosa.
Eng yaqini Gulnoza,
Ko'ngli juda ham toza.

Dalalarga boramiz,
Gullolalar teramiz.
Maktabga ham har kuni,
Birga borib kelamiz.

Bir kun do'stim kelmadi,
Bizlar bilan bo'lmadi.
Qo'ng'iroq qilgan edim,
Go'shakni ham olmadi.

Dugonalardan biri,
Tobi yo'qligin aytdi.
Uyda somsa pishirib,
Yugurdim tushlik payti.

Meni ko'rib Gulnoza,
Biram quvonib qoldi.
Dedi: – Kelgin Dilnoza,
Kasalim ham yo'qoldi.

Dilnoza VOHIDOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut
tumanidagi 34-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi

«ONAJONIM TABIAT»

insholar va rasmlar tanloviga

VURTIM, JAMOLI



Tug'ilib o'sgan zamin saxovatini
yurt bog'larini kezganda his etasan.
Har bir nihol, shivirlayotgan yaproqlar
go'yo senga Vatan jamolini ko'z-ko'z
etayotgandek. Gullagan daraxtlarga
qarab, umring bahorini qarshilaysan.
Tabiatning qudratini ana shu daraxtlarda
ko'rsan.

Hech kuzatganmisiz, majnuntol
novdalarini doim egik, ma'yus. Sanoqsiz
kokillarini sho'x shamollar o'ynaydi. U
iymanibgina boshini silkiydi. Tabiatning
ana shu mo'jizasini ko'rib, qalbing orom
oladi.

Men o'z ona qishlog'im Beshkapani
juda sevaman. Uning musaffo havosi
tanga davo. Uzoq yo'l bosib kelgan



Bugungi kunda yurtimizdagi qush-
larning 15 ga yaqin turi bizning qish-
log'imizda, uning bog'-u rog'larida,
keng adir-u dalalarida uchib yuradi.



Shahnoza KOMILOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
3-IDUMning 6-sinf o'quvchisi

mehmonlar
bu yerda
biroz tin
olsa, zumda
charchoqlari
yoziladi. Ajoyib ta'mga ega suvi esa
salomatlik uchun koni foyda.

Ona tabiat bizga o'z ne'matlarini in'om
etibgina qolmay, ularni ko'z qorachig'idek
asrab-avaylashimizni ham istaydi.
Shunday ekan, keling, tengdoshlar,
borliq musaffoligini asrashdek savobli
ishga o'z hissamizni qo'shaylik!

BARAKALLA, ADHAMJON!

Poytaxtimiz mezbonlik qilgan og'ir atletika bo'yicha Osiyo chempionatida yurtimiz sportchilari munosib ishtirok etib, o'zlarining ajoyib g'alabalari bilan sportsevar xalqimizga bir olam quvonch ulashdi. E'tiborlisi, sovrindorlar safida endigina 17 yoshni qarshilagan Adhamjon Ergashev ham bor.



Esingizda bo'lsa, ushbu umidli sportchimiz bundan bir necha yil avval Toshkentda og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan jahon chempionatida ham muvaffaqiyatli qatnashgan edi. Bu gal u kattalar o'rtasida o'tkazilgan turnirda ham o'zini yo'qotib qo'yadi. 62 kg vaznda ishtirok etgan Adham

Ergashev dast ko'tarishda 125 kg toshni o'ziga bo'yundirib, yakunda bronza medal bilan taqdirlandi. Biz iqtidorli sportchimizga kelajakda kattalar o'rtasidagi jahon chempionati va Olimpiada o'yinlarida ham g'olib bo'lishiga tilakdoshmiz.

BOKSCHILARIMIZ O'Z SO'ZINI AYTISHDI

Har gal sportchilarimizni xalqaro musobaqalarga kuzata turib, ularni yurtimizga olamshumul g'alabalar bilan qaytishini tilaymiz.



Bu bejiz emas. Boisi, Istiqlol yillarida mamlakatimizda yosh avlodni har jihatdan yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirildiki, bu o'z navbatida sportning ommaviyligiga xizmat qildi. Ayniqsa, olib borilgan sa'y-harakatlar sabab, boks yoshlarimizning eng sevimli sport turiga aylandi.

Kuni kecha Qozog'istonning Aktobe shahrida boks bo'yicha yoshlar o'rtasida G'olib Jafarov sovrini uchun o'tkazilgan yirik xalqaro turnirda ham yosh charm qo'lqop ustalarimiz munosib ishtirok etib qaytishdi. Jumladan, 44 kg vazn toifasida ringga ko'tarilgan Sadirbek Kamolmirzayev murabbiylar ishonchini to'la oqlab, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. U turnirdagi har bir jangda yuqori ishtiroq bilan harakat qilib, muxlis-u mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ayniqsa, mezbonlar vakiliga qarshi bo'lgan final bahsida Sadirbek o'zining eng ajoyib janglaridan birini o'tkazdi. Aslida, ushbu qarama-qarshilikda qozog'istonlik Madiyar Tajibayevning imkoniyatlari yuqori baholanayotgan edi. Lekin yakunda yosh sportchimiz raqibiga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va turnir g'olibligini qo'lga kiritdi.

Shuningdek, 52 kg vaznda yurtimiz sharafiga himoya qilgan yana bir umidli bokschimiz Abduvosid Hamidov Alimxon Tursunovdan ustun kelib, termamiz hisobiga navbatdagi oltin medalni qo'shib qo'ydi. Bundan tashqari, 46 kg vaznda Asadxo'ja Muhiddinxo'jayev, 60 kg vaznda Asadbek Shodiboyev hamda 80 kg vaznda Ahrorbek Nishonboyevlar ham bronza medali bilan taqdirlandi.

Sa'dullo TURSINOV

Bugungi kunda yosh avlodning zamonaviy bilim olishi va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

BEKOBODDA BELLASHUV

Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi Qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Toshkent viloyatining Bekobod shahrida «Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlab yoshlar o'rtasida sportning erkin kurash turi bo'yicha musobaqa tashkillashtirildi. «Vatan kelajagi – yoshlar qo'lida» loyihasi doirasida o'tkazilgan bellashuvlarda Toshkent, Sirdaryo, Farg'ona, Jizzax hamda Samarqand viloyatlari, shuningdek, poytaxtimizdan kelgan 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 250 nafarga yaqin sportchi o'zaro bellashdi. Musobaqa ishtirokchilari tumir bahonasida taniqli sportchilar bilan uchrashish baxtiga musharraf bo'lishdi.

G'oliblar homiy tashkilot tomonidan mukofotlandi.

Zarnigor MUSAYEVA

XOTIRA TURNIRI

Yaqinda Guliston shahridagi «Alpomish» sport majmuasida erkin kurash bo'yicha Omon G'ulomov xotirasiga bag'ishlangan Respublika ochiq turniri uyushtirildi.

Unda Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlari, shuningdek, poytaxtimizdagi olimpiya zaxiralari kollejlari, yakkakurash turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar

sport maktabi o'quvchilari va qozog'istonlik kurashchilardan iborat jami 140 nafar sportchi o'z vazn toifasida kuch sinashdi.

38 kg vaznda Guliston shahridan Botir Jo'rayev, 46 kg vaznda Jamshid Ma'rupov, 58 kg.lik kurashchilar orasida jizzaxlik Avazbek O'tkirov, 69 kg vaznda Umrzoq To'rabekov va Samarqand vakili Abdulaziz Sharifxo'jayev, 76-85 kg vazndagi polvonlar orasida gulistonlik Maqsud Veysalov g'oliblikni



qo'lga kiritdi.

Umumijamoa hisobida Sirdaryo viloyati jamoasi 1-, samarqandliklar 2-, Jizzax viloyati jamoasi 3-o'rinni egalladi.

Shukrulla G'ULOM

Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Qo'qon shahar 12-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Alisher Hasanov 2015-2016-o'quv yilida ko'pgina yutuqlarni qo'lga kiritdi.


MUNOSIB SHOGIRD

Hozirda shahardagi 18-umumta'lim maktabining 9-«B» sinfida ta'lim olayotgan bu o'quvchi darsi tamom bo'lishi bilan sport zaliga oshiqadi. Anchadan beri basketbol mashg'ulotlariga qatnashayotgan Alisher shahar ta'lim muassasalari o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada 1-o'rinni zabt etdi.

– Alisher tirishqoqligi bilan shogirdlarim orasida ajralib turadi. To'rga to'p tushirishda xatoga yo'l qo'ygan paytlarda ham hissiyatini yuziga chiqarmaydi va shu vaziyatga tushgan sherigining ruhini ham ko'tarishga harakat qiladi, – deydi ustozi Azizxon Mamajonov.

Maktab bitiruvchisi kelajakda huquqshunos bo'lishni orzu qiladi. Ustozlari esa undan basketbol bo'yicha yaxshi sport murabbiyi chiqishini ta'kidlashadi. Nima bo'lganda ham uning xalqimiz koriga yaraydigan yetuk inson bo'lib kamolga yetishiga ishonamiz.

Ulug'bek SAIDOV





Kitob – MA'NAVIYAT SARCHASHMASI



Bugungi kunda o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, ular qalbidagi adabiyotga mehr uyg'otish, el suygani adiblar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida respublikamiz umumta'lim maktablarida «Adabiyot kunlari», «Kitobim – oftobim», «Bir farzandga uch kitob», «Maktab-kutubxonona-oila-jamoat tashkilotlari» tadbirlari o'tkazilmoqda.

«Kitobim – oftobim» nomli yana bir tadbir poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 216-umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi. 2-«V» sinf o'quvchilari tomonidan tashkilashtirilgan mazkur tadbirda ma'naviyat xazinasi – kitob haqida she'rlar o'qildi. «Kitobni e'zozla!» sahna ko'rinishida Muslima Bahodirova, Durдона Asqaraliyeva,

Abdulloh Murodjonov, Ismoil Obidjonov, Zulfiya Egamberdiyeva hamda A'zam Asqaraliyev Bilmasvoyning qanday qilib kitobdan foydalanishni o'rganganini ertak qahramonlari obrazi orqali ochib berdi.

Tuman ARM rahbari Nasiba Qayumova, uslubchi Lena Davlatnazarova va tuman umumta'lim maktablari kutubxonachilari qatnashgan ushbu tadbir har doimgidan-da taassurotlarga boy kechdi. Kecha yakunida jaji ishtirokchilarga maktab rahbari Saodat Berdimuratova, kutubxon mudiri Muqaddas Ahmedjonova va sinf rahbari Adiba Rahimova yangi nashrdan chiqqan bolalar adabiyotidan sovg'a qilishdi.



Kitob – insonning yaqin sirdoshi, maslahatgo'yi, ko'makdoshi. Shuning uchun ham uni nondek e'zozlaymiz. Kitobni sevgan insonning ma'naviyati yuksak, dunyoqarashi teran bo'ladi.

Yaqinda Toshkent viloyatining «Turon» axborot-kutubxonona markazida «Kitob – ma'naviyat sarchashmasi» nomli uchrashuv bo'lib o'tdi. Kechada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Olqor Damin, Zangiota tumanidagi 44-umumta'lim maktabi o'quvchilari, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari ishtirok etishdi. Tadbirda so'zga chiqqan shoir Olqor Damin kitobning inson hayotidagi tutgan o'rni haqida so'zlab, yig'ilganlarga o'z she'rlaridan




o'qib berdi. Shuningdek, kutubxonona xodimlari D. Tursimatova, N. Amankeldiyevalar mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

NURBEK

Muzaffar AHMEDOV

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«IBRATLI SO'Z»NI O'QING-CHI!



Aylanalardan bosh harfni topib, ketma-ket o'qish bilan ibratli so'zni bilib oling.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Hayot daraxti

Yo'l bo'yida bahaybat tut daraxti bor edi. U xuddi yonidagi daraxtlarning bobokaloniga o'xshardi.

U shu qadar katta ediki, shoxlaridan biri ko'chani butunlay egallagan, ikkinchisi esa uy egasining hovlisi ustida edi. Mevasi pishganda qishloq bolalarining oyog'i uzilmasdi. Yoshi ulug'lar yozda charchog'ini shu daraxt soyasida chiqarardi. Nazarimda, u hayot daraxtiga o'xshardi.

Bir kuni uning tarvaqaylab ketgan shoxlari kesilib, undan fayz ketdi. Garchi tutning atrofida bolalar kamaygan bo'lsa-da, daraxtning ulkan tanasidan yangi novdalar barq urib o'sa boshladi. Demak, hayot davom etadi...



Yulduz MO'MINOVA, Toshkent viloyati, Qibray tumani


BAHORIY SALAT

Aziz qizlarjon, salatlarining inson organizmiga qanchalik foydali ekanligi hammamizga ma'lum. Quyida sizga tavsiya etmoqchi bo'lgan salatimizni tayyorlab, oila a'zolaringizni xushnud qilassiz, degan umiddamiz!

Kerakli masalliq: 2 dona bulg'or qalampiri, 4 dona pomidor, 4 dona bodring, 4 dona sarimsoqpiyoz donachalari, 200 gramm pishloq, 200 gramm brinza, 2 oshqoshiq salat yog'i, 1 oshqoshiq olma sirkasi, 1 bog' kashnich va ta'bga ko'ra tuz.

Tayyorlanishi: bulg'or qalampiri urug'idan tozalani va somoncha shaklida to'g'raladi. Qolgan barcha mahsulotlar ham somoncha shaklida to'g'ralib, yog', olma sirkasi qo'shib aralashtiriladi. Tayyor bo'lgan salatni tuzi rostlanib, likopchalarga solinadi va ko'katlar bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

8

9-may 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
S'adullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda ISSN 2010-6092 Tel./faks: 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10 Adadi – 49502 Buyurtma – S 5886